

## FIZIKA DARSLARIDA MAKTAB O'QUVCHILARIGA INTERFAOL METODLARDAN QO'LLASH ORQALI TA'LIM SIFATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Xo'janov Fozil Xolto'ra o'g'li**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti fizika-astronomiya  
yo'nalishi FA-102 guruh talabasi

**Sobitova Muxlisa**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti fizika-astronomiya  
yo'nalishi FA-105R guruh talabasi

**ANNOTATSIYA.** *Ushbu maqola orqali maktab o'quvchilari uchun dars sifatining samaradorligini oshirish maqsadida fizika darslarida jamoaviy va yakka holda interaktiv metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarni darsga qiziqtirish, mavzuni to'liq tushunishiga yordam berish va nazorat qilish masalalarida yordam beradi. Hamda o'qituvchilarning dars o'tish jarayonini maroqli o'tkazishdan iboratdir.*

**KALIT SO'ZLAR.** *Assesment, paradokslar, baholash, ijodiy ish, test, intervyu, bahs munozara, metod, qalin, ingichka.*

**ANNOTATION.** *A lesson for school children through this article in order to increase the efficiency of the quality of physics lessons, collective and teach students individually using interactive methods interest, help and control the topic helps with issues is to have fun*

**KEYWORDS.** *Assessment, paradoxes, creative work, test, interview, debate debate, method, thick, thin.*

**АННОТАЦИЯ.** *Урок для школьников через эту статью в целях повышения эффективности качества уроков физики, коллективных и обучать студентов индивидуально, используя интерактивные методы заинтересовать, помочь и контролировать тему помогает с проблемами это повеселиться.*

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА.** *Оценка, парадоксы, творческая работа, тест, интервью, дебаты дебаты, метод, толстый, тонкий.*

## KIRISH.

Assesment metodi. Assesment so‘zi inglizcha “assessment” so‘zidan olingan bo‘lib, “baho”, “baholash” ma‘nolarini bildiradi. Ushbu metod orqali o‘quvchilarning bilim ko‘nikmasini oddiygina baholash orqali o‘stirish mumkin. Aynan fizika darslarida bu metodni qo‘llash juda ham o‘rinli bo‘ladi. Fizika fani tabiatan fan bo‘lgani uchun maktab o‘quvchilarida o‘rganish bir muncha qiyinchilik tug‘diradi. Ularning erkin fikrlashida, muloqatida, masala ishlashida va hokozalar. Ana shunday jarayonlarda o‘quvchilarning bu noaniqliklarni baholash orqali darslarga jalb qilib ta‘lim sifatini oshirish mumkin. Bu sifatni oshirish uchun quyidagi tizimlarni fizika fani darsi jarayonida ko‘rib chiqamiz. Masalan o‘quvchilar Nyuton qonunlari mavzusiga tayyor birinchi baholash; Ikki o‘quvchi chiqib munozara qilishadi, Nyuton qonunlari kelib chiqish sabablari va formulalarini bir-biridan so‘rash orqali amalga oshirishadi. Bu orqali o‘qituvchi ularning bu mavzusiga qanchalik tayyorgarlik ko‘rganini munozara orqali bilib baholaydi. Bu jarayonda o‘quvchi o‘z do‘sti sherigini balki o‘z-o‘zini ham baholaydi. SHunda o‘quvchi psixologiyasida erkin fikrlash jarayoni mustahkamlanadi. Intervyu jarayoni bu jarayonda o‘quvchi doskaga chiqib mavzuni yoritib beradi. Bunda hamma uning nutqi, bilimlari hamda gapirish madaniyati va hokozalarni baholaydi. Bu jarayon o‘quvchilarning maqsadini ya‘na ham mustahkamlaydi. Ijodiy ish jarayoni bunda o‘quvchilar fizika darsligiga oid mavzularga slayd, tarqatma, videoro‘lik, multimedia, kransvord va hokozali istalgan ijod vositasini o‘z do‘stlari sinfdoshlari va o‘qituvchiga ko‘rsatadi. Bu jarayon orqali o‘quvchining ijodkorlik qobiliyatini baholanadi. Test jarayoni. Bu jarayonda o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarga biror bir fizika darsligida belgilangan mavzuda test tuziladi. O‘quvchilar test yechimlari baholanadi. Barcha jarayonlar orqali faqat va faqat bitta maqsad o‘quvchilarni baholash metodi orqali dars samaradorligini ya‘ni sifatini oshirish hisoblanadi. Bunda o‘quvchi yoshlar eng avvalo o‘ziga berilgan baho orqali ta‘lim olish jarayonini mustahkamlab yanada qatilylik bilan oshirishdan iboratdir.

Paradokslar metodi. Bu metod orqali o‘quvchilarda darsning nazariy jihatlarini o‘tilayotgan jarayonida qarama-qarshilik yuzaga keltiruvchi fikrlarni bartaraf qiladi. Paradokslar qaramaqarshilik degan ma‘noni bildirib, o‘qituvchi fizikaning istalgan mavzusining nazariy jihatdan mavzuni tushuntirib berayotganda, bu mavzuga o‘quvchining o‘zida bo‘lgan malumotlarni bir biriga o‘xshamaslik yoki bilgan ma‘lumotlari xato ekanligini tushunish kerakligi yuzaga keladi. Masalan aytaylik o‘qituvchi issiqlik mashinalari mavzusidan nazariy bilim berish jarayonida, har qanday hozirgi transportlar ichi yonuv dvigatellari orqali harakatga keladi unga faqat yoqilg‘i sababchi bo‘ladi degan fikrni ilgari sursa. Bu vaqtda o‘quvchilar avtomobillar faqatgina

yoqilg'ilar orqali harakatlanadiku degan fikrni o'ylab qoladi. SHu jarayonda paradoks metodi qo'llanilib, o'qituvchi o'quvchiga bu fikringiz ham to'g'ri, yoqilg'ilar ham kerak, ammo ichki yonuv dvigatellari bo'lmasa, mashina harakatlanmaydi. Bunday mulohazalardan so'ng o'quvchida yangi bilim ko'nikma hosil bo'ladi. Ya'ni o'z fikri bir pog'onaga o'sganini o'zida mujassam bo'lganini bilib, mashinalarga yoqilg'i quysak, ichki yonuv dvigatellari shuning hisobiga ishlashini bilib olishdab iboratligini ham bilib oladi.

Qalin va Ingichka savollar metodi. Har bir darslarning shu jumladan fizika darsining oxirida o'quvchilarning bir-birlariga, o'qituvchiga savol berish huquqi berilgan bo'lib, bu jarayonda hamma o'zi o'ylagan savollarni aytadi. Bu savollar ikki xil bo'lishi mumkin ya'ni qalin savollar to'plami, buning ichida ichma-ich savollar joylashgan bo'lib savolko'rinishi quydagicha bo'lishi mumkin. Ichki yonuv dvigatellari nimaning hisobiga ishlaydi, ularning ishlash prinsipini tushuntirib bering? Yana ingichka savollar to'plami ham bo'lib, bunda savol mazmuni oddiygina Ichki yonuv dvigatellari ishlashi qaysi sikl orqali amalga oshadi. Bu medod orqali o'quvchining mustaqil tarzda olgan bilimlrini xulosa qilgan holda savol javob qilgan holda erkin fikrlashi nutqi orqali mujassam bo'lib, dunyo qarashi yanada kengayishi mumkin.

### **XULOSA.**

Barcha metodlarning maqsadi fizika fanining dars o'tilish samaradorligini yanada oshirishdan iboratdir. Ana shunday maqsadarni ilgari surgan holda pedagoglar tomonidan bu metodlar dars mobayniga qo'llansa natijasi o'quvchilarning qabul qilish jarayoni oshishi shu bilan birga amaliy mulohazalari erkin fikrlashi o'ylash darajasini mustahkamlashdan iboratdir. Zamon talablari va jahon standartlariga javob bergan holda o'quvchilarga ta'lim berish har qanday pedagogning oliy maqsadi hisoblanadi. Ana shu maqsadning vazifasi o'laroq bu metodlar barch talablarga albatta javob beradi.

### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Ishmuhamedov R. J. Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar. -T.: Nihol nashriyoti, 2016
2. Sadriddinov N, Rahimov A, A Mamadaliyev, Z Jamolova. Fizika o'qitish uslubi asoslari. T.: O'zbekiston 2005
3. Suyarov K.T. Talabalardaning fizikadan olgan ekspremental bilimi, o'quvi va ko'nikmsini tekshirishning darajalari va ularni amalda qo'llash //Ta'lim, fan va innovatsiya. 2016
4. Shodiyev N. SH. Yangi pedagogik texnologiyalar. (ma'ruzalar matni)